

QADIMGI KARMANA, POYKENT, AFROSIYOB KABI SHAHARLARDAGI ARXEOLGIK TOPILMALAR ASOSIDA HUNARMADCHILIK VA SAVDO TAHLIL

Obilov Azizbek

Navoiy davlat universiteti 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20438800>

Annotatsiya: Ushbu matnda Buyuk Ipak yo'lining muhim qismlari bo'lgan qadimiy Karmana, Poykent va Afrosiyob shaharlarining tarixiy, iqtisodiy va madaniy ahamiyati arxeologik tadqiqotlar hamda yozma manbalar asosida tahlil qilingan. Shaharlarning geografik joylashuvi, mudofaa inshootlari, hunarmandchilik va savdo-sotiq rivoji, shuningdek, turli davrlarga oid topilmalar (sopol buyumlar, tangalar, karvonsaroylar) orqali yoritib berilgan. Tadqiqotlar o'tmishda bu hududlar xalqaro aloqalarda muhim strategik o'rin tutganidan dalolat beradi.

Kalit so'zlar: Karvonsaroy, Karmana, mudofaa devorlari, Afrosiyob, kulolchilik, hunarmandchilik, savdo markazi.

Qadimgi Karmana, Poykent va Afrosiyob shaharlari Buyuk Ipak yo'lidagi muhim savdo va hunarmandchilik markazlari bo'lgan. Arxeologik topilmalar ushbu hududlarda metallga ishlov berish, kulolchilik, shisha ishlab chiqarish va xalqaro savdo yuksak darajada rivojlanganini, shuningdek, madaniy-iqtisodiy yuksak taraqqiyotni tasdiqlaydi.

Karmananing qadimiy shahar, hunarmandu savdogarlar ko'p istiqomat qilgan kent ekanligi haqida ma'lumotlar saqlangan. Narshaxiy “Buxoro tarixi” kitobida Karmanaga ta'rif berib, “Karmana Buxoro qishloqlari jumlasidan bo'lib, unda masjidi jome' barpo etilgan, adib va shoirlari ko'p bo'lgan” degan qimmatli ma'lumotlarni qoldirgan. Shuningdek, As-Somoni, Istahriy, Muqaddasiy, Yaqubiy asarlarida karmana iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlangan markaz sifatida tilga olingan. Taniqli geograf olim, atamshunos Suyun Qarayev Karmanani “Xarimankent”, ya'ni “Katta manzilli kent” shaklida tilga olgan. Rivoyatlarga ko'ra, makedoniyalik Aleksandr Buxoro yerlarini bosib olib, Nur qal'asidan Zarafshon daryosi tomon kelayotganda, baland qir ustidan daryo sohilidagi go'zal, xushmanzara kentni ko'rib, unga mahliy bo'lib, “Karmeno” deb yuborgan. “Karmen” grekcha so'z bo'lib, “go'zal” degan ma'noni bildiradi. Boshqa manbalarga ko'ra esa, arablar bu joylarni ko'rib, “Ka Arminiya” – “Armanistonga o'xshash go'zal joylar” deb nomlagan ekanlar. Buxoro So'g'dining sharqiy chekkasida, Samarqand va Buxoro o'rtasida, qadimiy “Shoh yo'li” ustida joylashgan Karmana muhim markaz sifatida yirik iqtisodiy va harbiy strategik ahamiyatga ega bo'lgan. Karmana shimolda Nurotaning Qoratog' tizmalari, shimoli g'arbda Qizilqum, janubda esa Ziyovuddin-Zirabuloq tog' tizmalari, sharqda hosildor bog'lar bilan o'ralgan, geografik jihatidan juda qulay hududda joylashgan.

1986 yilda yodgorlikning sxematik plani tuzilgan va uning ustidan terib olingan arxeologik topilmalar asosan Burquttepada eramizdan avvalgi III-II asrlardan to o'rta asrlargacha odamlar yashaganligi ko'rsatadi. Keyingi yillarda arxeolog olim Muhiddin Xo'janazarov boshchiligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida arkning 8 metr kenglikdagi mudofaa devori ochib o'rganildi va shu bilan birga, arkning shimoliy qismda olib borilgan qazishma ishlari natijasida bu yerda yodgorlikning eramizdan avvalgi IV-III asrlariga tegishli arxeologik topilmalar bilan birga yerto'laga o'xshash uy-joyning qoldig'i topilgan. Yodgorlik shahristonida (hozirda qabristonga aylantirilgan) olib borgan qazishmalar natijasida X-XIII asrlarga oid ko'plab kulolchilik idishlari va pishiq g'ishtlar, tegirmon toshlari topilgan.

Kunjaktepa yodgorligida ham tadqiqot ishlari olib borilib, uning shimoli-g'arbiy tomonida 2x11,5 metrli va yodgorlikning g'arbiy tomonidan 8 metr uzoqlikda 2x3 metr o'lchamda shurf qazib

o‘rganildi. Yodgorlikning shimoli-g‘arbiy hududida qazilgan qazishmada ilk o‘rta asrlarga oid 4 ta qurilish davriga tegishli paxsa va xom g‘isht aralash mudofaa devor qoldiqlari va uning ichki tomonida paxsa devorli turar-joy o‘rni qoldiqlari ochib o‘rganildi. Xonalardan birida yonma-yon joylashgan 2 ta xo‘jalik o‘ra qoldiqlari aniqlandi. Ushbu o‘ralardan biri xona polning ustiga qurilgan bo‘lsa, ikkinchisi xona pol qismini kesib tushirilgan va uning saqlangan qismi chuqurligi 20 santimetr gacha boradi. Ushbu qazishma ishlari jarayonida mudofaa devori orasida so‘nggi antik davrga tegishli qadah, qizil angob bilan bo‘yalgan kosa va xurmacha idish bo‘laklari qayd etildi. Qishloq makonlarida aniqlangan kulollik idishlar o‘zining tayyorlanish texnikasi hamda texnologiyasining yuqori sifatlilik bilan ajralib turadi. Bu o‘z navbatida ushbu idishlarni shahar hunarmandlari yasaganligidan dalolat beradi.

Poykend, Poykand — qad. karvon yo‘li ustida qad ko‘targan shahar harobasi (miloddan avvalgi 4—3—milodiy 11-asrlar). Buxorodan 44 km jan.-g‘arbda, Jondor va Qorako‘l tumanlari tutashgan xududda joylashgan. O‘rta asr yozma manbalarida shahar Boykand, Xitoy solnomalarida esa Bi nomlari bilan tilga olinadi. Uning nomlari "Quyi shahar" ma‘nosini anglatadi. Poykent tashqi devorlarining nihoyatda mustahkamligidan shahar ilk o‘rta asrlarda "Shahristoni Ro‘in", ya‘ni "Jezdan qurilgan shahriston" (Jez shahar) nomi bilan shuh-rat topgan.

Poykent o‘z tarixi jarayonida Buxoro vohasining nafaqat yirik savdo markazlaridan biri sifatida, balki tutgan geografik o‘rni jihatidan G‘arbiy Sug‘dning siyosiy hayotida strategik tomondan muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Vohaning jan.-g‘arbiy chegarasida harbiy istehkom sifatida bino qilingan. Poykent ilk o‘rta asrlarda Buxoro viloyatining atrofi yagona mudofaa inshooti — Kan-pir devor bilan o‘rab olingunga qadar u jan.g‘arb, dasht hududlaridan mutta-sil sodir bo‘ladigan ko‘chmanchi qabilalarning chopkunlarini qaytarish va tashqi dushman hujumlarining yo‘lini to‘sib, ularga dastlabki zarbalarni berishda mustahkam harbiy qaror-goh vazifasini o‘tagan. Uning mudofaa inshootlari nihoyatda mustahkam qurilgan bo‘lib, zamonasining har qanday qamaliga bardosh bera olgan.

Poykent shahri harobalari arxeologik jihatdan dastlab 1903 yilda R.Pampelli, 1913—14 yillarda L.A.Ziminlar tomonidan o‘rganilgan. Buxoro vohasi shaharsozlik madaniyatining yuzaga kelishi va rivojlanish tarixini o‘rganish munosabati bilan o‘tgan asrning 80—90 yillarida PoykentArkning quyi qatlamida qavd etilgan topilmalar miloddan avvalgi 4—3-asrlar, ichki shahristonning ostki qatlami topilmalari milodiy 3—4-asrlar va tashqi shahristonning quyi qatlami va topilmalari esa 4—5-asrlar bilan sanaladi. Arxeologik topilmalarning guvohlik berishicha, Poykentda hayot miloddan avvalgi 4-asrdan to milodiy 11-asrgacha, ya‘ni 1500 yil davomida kechgani ma‘lum bo‘ldi. Arkda qad. ibodatxona, jome masjid va podshoh saroyi harobalari, ichki shahristonda dorixona (8-asr), bir qancha ulkan tandirlar o‘rnatilgan shahar nonvoyxonasi, tashqi shahristonda kulollik, shishasozlik kabi hunarmandlarning mahalla-ko‘ylari, 4 tomoni supali markazida sandali bor yotoqxonalar, oshxonalar, omborxonalar va tashnobli tahoratxonali mo‘jazgina bir qavatli hovlijoylarning harobalari qazib ochildi. POYKENTning rabod qismida kulollik, shishasozlik va temirchilik us-taxonalari-yu xumdon va qo‘ralari hamda 50 dan ortiq nauslarning qol-dikdari bilan bir qatorda POYKENTdan Buxoroga tomon yo‘nalgan karvon yo‘li (kengligi 20 m)ning 2 yoqasi bo‘ylab joylashgan 20 dan ortiq karvonsaroylarning vayronalari qayd etilib, ulardan bir nechtasi qazib ochildi. 8—10-asrlarga mansub bunday mehmonxonalar va qo‘noqxonalar murabaa (75x75m) shakdda xomg‘ishtlardan bino qilingan. Tashqi devorning 4 burchagi doira shaklida burjlar bilan mustahkamlangan. Hovlisining markazida tuyalarga ortilgan yuklar tushiriladigan 1 yoki 2 uzun supalar ishlangan. Karvonsaroy qaramaqarshi tomonlarida 2 darvoza (3—5 m) o‘rna-tilgan. Mehmonxonaning 4 tomoni bo‘ylab 60 dan ortiq supali, sandalli 1 yoki 2 xonali yotoqxonalar,

o'chokli yoki tandırli ovqatxona, tashnoblı tahorat yoki g'uslxona va omborxonalar joylashgan. Saroyning shim.-g'arbiy burchagida otashparastlarning otashkadali ibo-datxonasi bino qilingan. Xonalarning tomi ravoqsimon shaklda yopilib, markaz qismida sopol quvurlardan mo'rkonlar o'rnatilgan.

Xarobalarida keng ko'lamda muttasil arxeologik qazish ishlari amalga oshirildi. Arxeologik tadqiqotlarni tashkil etish maqsadida 1980 yilda O'zbekiston FA Arxeologiya instituti va Rossiya Davlat Ermitajining maxsus qo'shma arxeologik ekspeditsiyasi (A.Muhammadjonov rahbarligida) tashkil etildi. Bu ekspeditsiya a'zolari (G.L.Semenov, J.Mirzaahmedov, Sh.Odilov va boshqalar) ko'p yillarga rejalashtirgan arxeologik qazishlarni to hozirgi kunga qadar davom ettirmoqdalar .

Arxeologik qazishlar jarayonida Poykent yodgorligidan turli xil topilmalar: sirli va sirsiz sopol ko'za va tovoqlar, shisha idishlar, jez va temir bu-yumlar, qurolyarog'lar, shuningdek, turli sanalarda zarb etilgan chaqa tan-galar (Xitoy, Sosoniy, Umaviy va Ab-bosiylarning fuluslari; Buxoro, Samarqand, Marv, Farg'ona, Axsikat va Isfijob zarbxonalarida zarb etilgan Somoniy va Qoraxoniylarning tangalari hamda Hirotda zarb etilgan G'aznaviylarning 1 dona oltin dinori) topildi.

Afrosiyob — Samarqandning qadimgi xarobasi. Bu nom tarixiy manbalarda qadimgi Samarqandga nisbatan faqat 17-asrdan boshlab uchraydi. Qadimgi Samarqand sug'd manbalarida Smarakanve deb atalgan. Mil. av. 4-asrda Samarqand Aleksandr Maqsuniy qo'shinlari tomonidan istilo etilgach, yunon mualliflari kundaliklarida Maroqanda sifatida eslatiladi. Maroqanda Smarakanvening yunoncha tarjiması. Movarounnahrda somoniylar hokimiyat tepasiga kelgach, qadimgi Smarakanve 9-asrdan boshlab Samarqand deb atala boshlandi.

Afrosiyob Shishkin (1958-66) va Ya. F. G'ulomov (1967—70)lar rahbarligida olib borilgan keng ko'lamli arxeologik qazishlar natijasida qadimgi madaniy qatlam materiallari Afrosiyobning boshqa joylaridan ham topildi. 1966 yil 13 iyulda Afrosiyobni arxeologik jihatdan kompleks o'rganishni tashkil etish maqsadida Respublika hukumatining maxsus qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, Afrosiyob „arxeologik qo'riqxona“ deb e'lon qilinib, uni o'rganish ishiga Toshkent va Samarqand davlat universitetlari hamda Madaniyat vazirligining San'atshunoslik instituti ham safarbar etildi. Aniq ilmiy rejalar asosida boshlangan arxeologik tadqiqotlar tufayli nafaqat shaharning ko'p asrlik yoshi, balki uning har xil davrlardagi tarixiy topografiyasi, shahar tarkibi, shahar hayotining rivojlanish bosqichlari, bosqinlar tufayli yuz bergan bo'hronlar davri aniqlandi.

Afrosiyobda topilgan arxeologik materiallar Samarqand miloddan avvalgi 8—5-alarda Sug'diyonaning markaziy shahri sifatida vujudga kelganligini ko'rsatadi. Mil. av. 329 yilda shahar Aleksandr Maqduniy qo'shinlari tomonidan vayron etilgan, uning izlari hozirgacha shahar mudofaa inshootlarida yaxshi saqlangan. Mil. av. 3 — 1-asrlarda, Kushonlar saltanati davrida shahar hayotida yuksalishlar yuz bergan. Mil. av. 3-asrda shahar qo'shaloq mudofaa devori bilan o'rab olingan. U davrlarning qalin ma-daniy qatlami Afrosiyobning shim.da, uning arki a'losi joylashgan qismida yaxshi saqlangan. Arxeologik materiallar va yozma manbalarda ta'kidlanishicha, bu zamonda Samarqand orqali Buyuk ipak Yo'li o'tgan, ichki va tashqi savdo, hunarmandchilik rivoj topgan.

Afrosiyobda qazishma ishlari ayniqsa Samarqandda O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Arxeologiya instituti tashkil topgach, keng ko'lamda kuchaydi. Ya. G'. G'ulomovdan so'ng Afrosiyobdagi arxeologik qazishmalarga G. V. Shishkina, Sh. Toshxo'jaevlar rahbarlik qildi. Keyingi yillarda (1989 yildan) Afrosiyobni arxeologik jihatdan tadqiq etish ishiga fransuz arxeologlari — Pol Bernar, Frans Grene va b. jalb etilgan. Fransuz arxeologik missiyasi O'zbekiston arxeologlari bilan (M. Isomiddinov va b.) hamkorlikda Afrosiyobni o'rganishda qatnashmoqsa. O'zbek va fransuz

olimlarining hamkorlikda olib borgan tadqiqot natijalari qadimgi Samarqand tarixiga oid qator masalalarga aniqlik kiritdi, ya’ni miloddan avvalgi 6—5-asrlarga taalluqli shahar mudofaa devorlari ostidan guvalaqdan qurilgan yanada qadimgi devor qoldiqlari ochilib, Samarqandning yoshi miloddan avvalgi 8-asr o’rtalariga oid ekanligi isbotlaydi; shaharning arki a’lo qismidan milodiy 8-asrga oid murabba (70x70) shaklidagi Samarqand ixshidlarining mahobatli saroyi qoldiqlari ochildi. Afrosiyobda arxeologik tadqiqot ishlari davom etmoqda.

Xulosa. Ushbu maqolada Karmana, Poykent va Afrosiyob shaharlari Buyuk Ipak yo’lidagi shunchaki bekatlar emas, balki o’z davrining yirik madaniy, hunarmandchilik va harbiy-strategik markazlari bo’lgan. Yozma manbalar va arxeologik qazishmalar bu hududlarda xalqaro savdo va shaharsozlik madaniyati yuksak darajada rivojlanganini isbotlaydi. Karmananing qulay iqtisodiy joylashuvi, Poykentning mustahkam mudofaa tizimi va Afrosiyobning Sug’diyona markazi sifatidagi o’rni o’zbek davlatchiligi tarixining chuqur ildizlaridan dalolat beradi. Bugungi kunda olib borilayotgan xalqaro arxeologik tadqiqotlar ushbu qadimiy shaharlarning jahon sivilizatsiyasidagi beqiyos o’rnini yanada mustahkamlab kelmoqda.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far Narshaxiy. Buxoro tarixi (A. Rasulev tarjimai). – Toshkent: Fan, 1966.
2. Abu-l-Qosim Ubaydulloh ibn Abdulloh Ibn Xordadbeh. Kitob al-masalik va-l-mamalik (Yo’llar va mamlakatlar kitobi).
3. Abu Ishoq al-Farsiy al-Istahriy. Kitob al-masalik va-l-mamalik. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad al-Muqaddasiy.
4. Ahsan at-taqosim fi ma’rifat al-aqolim.
5. Abu-l-Abbos Ahmad ibn Abu Ya’qub al-Ya’qubiy. Kitob al-buldan (Mamlakatlar kitobi).
6. Qarayev S. Geografik nomlar ma’nosi. – Toshkent: O’zbekiston, 1978. (Karmananing atamashunoslik tahlili bo’yicha).
7. Мухамеджанов А. Р., Адылов Ш. Т., Мирзаахмедов Д. К., Семенов Г. Л. Городище Пайкенд. К проблеме истории средневекового города Средней Азии. – Ташкент: Фан, 1988. (Poykent arxeologik ekspeditsiyasi xulosalari).
8. Шишкин В. А. Афрасиаб — сокровищница древней культуры. – Ташкент: Фан, 1966. (Afrosiyob qazishmalari bo’yicha).
9. Гулямов Я. Г. История Самарканда. Том 1: С древнейших времен до великой Октябрьской социалистической революции. – Ташкент: Фан, 1969.
10. Хо’janazarov M. Karmana va uning atrofidagi yodgorliklar arxeologik tadqiqi // O’zbekistonda arxeologik tadqiqotlar (Mavsumiy hisobotlar to’plami). – Samarqand.
11. Semenov G. L. Excavations at Paikend // IsMEO (International Association of Mediterranean and Oriental Studies) Reports. – Rome/St. Petersburg, 1990-2000. (Rossiya Ermitaji va O’zbekiston FA Arxeologiya institutining qo’shma hisobotlari).
12. Bernard P., Grenet F., Isamidinov M. Fouilles de la mission franco-ouzbèque à Afrasiab (Samarkand) // Comptes rendus des séances de l’Académie des Inscriptions et Belles-Lettres. – Paris, 1992. (O’zbek-Fransuz qo’shma ekspeditsiyasi materillari).